

**O‘ZBEK ADABIY TANQIDCHILIGI TARRAQIYOTIDA
BAXTIYOR NAZAROVNING O‘RNI**

Farg‘ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti o‘zbek tili yo‘nalishi

IV bosqich talabasi

Nabiyeva Farangiz

Annotatsiya : *Mazkur maqolada taniqli adabiyotshunos olim, akademik Baxtiyor Nazarovning o‘zbek adabiy tanqidchiligi rivojidadagi xizmatlari tadqiq etiladi. Olimning tanqidchilik metodologiyasini shakllantirish, XX asr o‘zbek adabiyoti tarixini xolis baholash va milliy tanqidchilikni jahon andozalari darajasiga ko‘tarishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Maqolada Nazarovning ilmiy merosi bugungi kun adabiy jarayoni uchun ham dasturilamal bo‘lib xizmat qilishi ta’kidlangan. Maqola davomida muallifning asosiy metodologik prinsiplari, tahlil yondashuvlari va izchil ilmiy qarashlari asosida adabiyotshunoslikdagi o‘rni ochib beriladi.*

Kalit so‘z : *Baxtiyor Nazarov, o‘zbek adabiy tanqidchiligi, metodologiya, adabiyotshunoslik, badiiy tahlil, estetik mezon, adabiy jarayon, munaqqid mahorati.*

Abstract: *This article explores the contributions of the renowned literary scholar, Academician Bakhtiyor Nazarov, to the development of Uzbek literary criticism. It analyzes the scholar's role in shaping the methodology of criticism, providing an objective evaluation of 20th-century Uzbek literature, and elevating national criticism to the level of international standards. The article emphasizes that Nazarov's scientific heritage serves as a foundational guide for today's literary processes. The article elucidates the author's role in literary criticism based on their core methodological principles, analytical approaches, and consistent scientific perspectives.*

Keywords: *Bakhtiyor Nazarov, Uzbek literary criticism, methodology,*

literary studies, artistic analysis, aesthetic criteria, literary process, skills of a critic.

Kirish .

Bugungi o‘zbek adabiyotshunosligi faqatgina matn tahlili bilan cheklanib qolmay, fundamental nazariy metodologiyalar negizida jadal rivojlanmoqda. Ushbu sohadagi taraqqiyot milliy adabiy merosimizning mantiqiy vorisi sifatida har bir davrga xos badiiy tafakkur silsilasini chuqur tadqiq etishni taqozo qiladi. Shu nuqtayi nazardan, adabiyot nazariyasini amaliy tahlil mezonlari bilan mahoratli tarzda uyg‘unlashtirgan olimlar merosi beqiyos ahamiyatga ega. Xususan, professor Baxtiyor Nazarov o‘zining serqirra ilmiy faoliyati va teran nazariy qarashlari bilan zamonaviy adabiyotshunoslik maktabining eng yirik namoyandalaridan biri sanaladi.

O‘zbek adabiy tanqidchiligi taraqqiyotida akademik Baxtiyor Nazarov o‘ziga xos fundamental o‘rin tutadi. Olim, ayniqsa, XX asr oxiri va XXI asr boshlarida milliy tanqidchilikning metodologik asoslarini takomillashtirish, sohani yangi bosqichga ko‘tarishda beqiyos xizmat qildi.

Uning ilmiy-estetik qarashlari, asar badiiyatini ichkaridan tahlil qilishdagi yuksak mahorati va adabiy jarayonni xolis baholashdagi zamonaviy yondashuvlari o‘zbek adabiy tanqidini nazariy jihatdan boyitdi. Baxtiyor Nazarov munaqqidlikni shunchaki taqrizchilikdan yuksak adabiy-falsafiy tadqiqot darajasiga ko‘tardi va o‘zbek tanqidchilik maktabining yangi davr poydevorini mustahkamlab berdi.

Asosiy qism.

Baxtiyor Nazarov adabiy tanqidning metodologik muammolarini o‘rganib, tanqidchi mahorati, tahlil madaniyati va adabiy jarayonda tanqidning o‘rnini ilmiy asoslab berdi. Uning “Olim madaniyati”, “Badiiy asar qalbi va tanqidchi dunyosi”, “Yosh tanqidchilarni tarbiyalash muammolari” kabi maqolalari o‘zbek adabiy tanqidini yangi yuksak bosqichga ko‘tardi. Shuningdek, u o‘zbek tanqidchiligi tarixini chuqur o‘rgangan va uning taraqqiyot bosqichlarini ilmiy asosda tasniflagan

olim sifatida e'tirof etiladi.¹

Ijodiy ufqi keng munaqqid sifatida B. Nazarovning ilmiy diapazoni faqat o'zbek munaqqidlari va adiblari ijodi bilangina chegaralanib qolmaydi. U muayyan darajada jahon adabiy tanqidchilari va san'atkorlari ijodiga murojaat etishi bilan ham ajralib turadi. Olimning Sofokl va Shekspir asarlariga, shuningdek, «Qutadg'u bilig»ning jahon estetik tafakkuri rivojida tutgan o'rniga bag'ishlangan maqolalari o'zbek tanqidiy tafakkuri kengliklaridan dalolat beradi.

Munaqqidning «O'zbek adabiy tanqidchiligi», «Bu sehrku dunyo», «G'afur G'ulom olami», «O'zbek adabiy tanqidi tarixi» kabi asarlarida XX asr o'zbek adabiyotining shakllanish bosqichlari tahlil etiladi. Ayniqsa, jadidlar davridagi ma'rifiy-estetik yondashuv, sovet realizmi davridagi ideologik poetika va mustaqillikdan keyingi davrdagi metaforik-estetik ifoda vositalari tadqiq qilinadi. Baxtiyor Nazarov ushbu bosqichlarda badiiy tafakkurning semantik ko'lami, poetik shakllari va obrazlar tizimi qanday o'zgarganini o'ziga xos nazariy yondashuv orqali aniqlaydi.²

Ayniqsa, Baxtiyor Nazarovning poetik obraz nazariyasi o'zbek adabiy tanqidida yangi bosqichni boshlab berdi. U poetik obrazni shunchaki badiiy bezak emas, balki estetik tafakkur, semantik tizim va milliy madaniyatni aks ettiruvchi vosita sifatida talqin etdi. Uning bu yondashuvi adabiy matnni anglashda, shoir tafakkuriga kirib borishda hamda xalq ruhiyatini badiiy vositalar orqali tushunishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, G'afur G'ulom va Halima Xudoyberdiyeva kabi shoirlar ijodi misolida olib borilgan tahlillar ushbu nazariyaning mustahkam dalilidir.

B. Nazarovning ilmiy metodologiyasi yana bir muhim xususiyat bilan ajralib turadi: u har qanday adabiy hodisani faqat matn darajasida emas, balki tarixiy-estetik kontekstda – davr ruhiyati va madaniy muhit bilan bog'liq holda o'rganadi.

¹ Nazarov B. Hayotiylik — bezavol mezon. –Toshkent: Yozuvchi.

² Nazarov B. Hayotiylik – bezavol mezon. –Toshkent: Yozuvchi.

Olimning nazarida har bir badiiy asar o'z vaqtining ruhiy-madaniy mahsulidir. Shu bois u badiiy matnni faqat zamonaviy ko'z bilan emas, balki tarixiy ong va ijtimoiy-falsafiy tendensiyalar bilan uyg'un holda tahlil qilishni taklif etadi. Binobarin, B. Nazarovning XX asr ikkinchi yarmidan hozirgacha bo'lgan davrni qamrab olgan ilmiy-nazariy izlanishlari o'zbek tanqidchiligi taraqqiyotida salmoqli o'rin tutadi.

Xulosa .

XulosaBaxtiyor Nazarov o'zbek adabiy tanqidining yirik namoyandasi sifatida adabiy jarayonni chuqur anglash, badiiy ijodga ilmiy-estetik yondashuvni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Nazarovning nazariy qarashlari,tarixiy-adabiy tadqiqotlari, maho-rati va nozik talqinlari bugungi o'zbek tanqidchilik maktabining mustahkam asosini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Nazarov B. Bu sehrli dunyo. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti
2. Nazarov B. Hayotiylik – bezavol mezon. –Toshkent: Yozuvchi.
3. Nazarov B. O'zbek tanqidchiligi: g'oyaviylik, metod, qahramon. – Toshkent: Universitet.
4. Yo'ldoshev M. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2005. – 210 b.